

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

TONG

YULDUZI

2009-yil  
27-iyul  
N:30  
66727

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

## DUSHANBADAN

### QOYIL-E!

Navoiy shahridagi 1-Bolalar va o'smirlar sport maktabi o'quvchisi o'n yoshli Abbas Ahmatov shaxmat bo'yicha ko'pchilik havas qilsa arzigulik yutuqlarga erishdi. U joriy yilning boshida poytaxtimizda tashkil etilgan O'zbekiston birinchiligida ikkinchi o'rinni egallab, kumush medali sohibi bo'ldi va navbatdagi Osiyo chempionatiga yo'llanma oldi.

Hamyurtimiz, o'n yettinchi jahon chempioni Rustam Qosimjonovga havas qilib, shaxmat sirlarini mukammal egallashga intilayotgan Abbasjon bu nufuzli chempionatda ham Vatanimiz sharafini munosib himoya qiladi, degan umiddamiz.

### SAN'ATIGA SAN'AT QO'SHILSIN!

Berlin shahrida yosh pianinchilarning ikkinchi xalqaro tanlovi («SPORZANDO») o'tkazildi. Unda Yevropaning qator mamlakatlaridan, shuningdek, o'zbekistonlik iqtidorli yoshlar ham qatnashib, o'z mahoratlarini namoyish etishdi.

Tanlovning katta va o'rta yosh guruhlarida ishtirok etgan Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi o'quvchilari Dilnoza To'rayeva, Feruza Maqsudovalar tanlovda uchinchi o'ringa munosib topildilar.

Istiqlol bergan imkonlardan mamnun bo'lib, bundan-da yuqori pog'onalarni ko'zlayotgan qizlarimiz san'atiga san'at qo'shilsin!


### QUVONMAY BO'LADIMI?!

Ayni kunlarda Marg'ilon shahridagi «Istiqlol», «Navbahor», «Yangiobod» mahallalari bolalarining quvonchi cheksiz. Quvonmasinlarni axir, ular uchun xususiy tadbirkor Mavluda Kenjaboyevaning sa'y-harakati bilan «Turon» mahalla fuqarolar yig'inida ming tonna kubometr suv sig'imiga ega cho'milish havzasi qurib berildi.

## DUSHANBAGACHA

BIZ SHUNDAY  
DAM OLYAPMIZ.  
SIZ-CHI?





Toshkent 2200 yoshda  
«BEGONA» SO'ZINING O'ZI  
BEGONA

Zamonaviy yoshlar qatori men ham internet xizmatidan foydalanaman. Bu tarmoq orqali ko'plab do'stlar orttirdim. Ulardan biri malayziyalik Siva ismli yigit. U yurtim haqidagi hikoyalarimni tinglab, yozgi ta'tilni aynan Toshkentda o'tkazish istagini bildirdi.

Do'stimni aeroportda kutib olib, uyimizga taklif qildim. Oila a'zolarimiz mehmonni iliq qarshi olishdi. Onam o'zbekcha palov bilan siyladilar. Ertalab barvaqt turib, oshxonada nonushta tayyorlashga unnayotgandim, hovlidan yuz-qo'llarini yuvib kirayotgan Siva yonimga kelib:

– Sizning iqlimingiz qanaqa o'zi? Havoda yomg'ir hidini sezmayapman, ammo sizning hovlingizga, ko'changizga yomg'ir yoqqan, – dedi astoydil ajablanib.

– Hech qanday yomg'ir yoqqani yo'q. Bizda odat shunday: ertalab va kechqurun hovli-ko'chalarga suv sepib, supuriladi.

– Chang-g'uborsiz ko'chalarca mazza qilib yugurarkanmiz-da! – dedi zavqlanib badantarbiyaga otlanayotgan do'stim.

Unga men ham hamroh bo'ldim. Sarishta ko'chalar bo'ylab yugurib borarkannimiz, mahalladoshlarim bilan salomlashib o'tardim. Ular salomimga alik olib, Sivaga qarata: «Good morning, mehmon!» deb qo'yishardi tavoze bilan bosh chayqab. Chamandek yashnab turgan rayhon-u atirgullarning ifori bahri dilimizni ochardi. Shunda hamrohinning ko'zida hayajon va havasni ko'rdim.

Do'stimni shahrimizning xushmanzara go'shalari bo'ylab sayohat qildirdim, muzeylarga, saylgohlarga, bozorlarga olib bordim, tarixiy obidalarimiz bilan tanishtirdim.

Hash-pash deguncha bir hafta ham o'tib ketdi. Sivani o'z yurtiga kuzatar ekanman, u:

– Bilasanmi, bu yerga kelayotganimda, biror mehmonxonada tursam kerak, deb o'ylagandim. Lekin sizlar meni oilangiz a'zosidek qabul qildingiz. Mahalladoshlarning ahilligi ham meni lol qoldirdi. Biz ba'zan yon qo'shnimiz bilan 7-8 yildan so'ng tanishamiz. Shahringizni ko'rimsiz, pastqam-pastqam binolardan iborat deb tasavvur qilgandim. Rivojlangan mamlakatlarning shaharlaridan sira qolishmas ekan. Zamonaviylik bilan sharqonalikning uyg'unlashib ketgani meni hayratlantirdi. Safarga otlanayotganimda, uydagilar biroz xavotir olishgandi: begona yurt, begona odamlar... degandek. Ammo bu yurtga «begona» so'zining o'zi begona ekan. Rostini aytsam, ketishni istamayapman...

Uch kundan so'ng, Siva menga internet orqali bir necha suratlar jo'natdi: birida u rayhon ekyapti, ikkinchisida suv sepyapti. «Toshkentning bir bo'lagini Malayziyaga olib keldim», deb xat ham yozibdi.

Avvallari oynayi jahon orqali sayyohlar yurtimizni maqtashsa: «Balandparvoz so'zlar-da, Parij, Rim kabi shaharlar sayohat qilishga arziqli joylar», deb o'ylardim. Poytaxtimiz ta'rifini o'z qulog'im bilan eshitgach, qalbimni allanechuk quvonch va hayajon qopladi: «Sen bilan faxrlanaman, qadim va navqiron TOSHKENTIM!»

Muxlisa MUSAXO'JAYEVA

Barcha zararli odat orasida eng ko'tarqalgani – tama chekish dunyo aholi e'tiborida turgan va o'yechimini topishi lozi bo'lgan dolza muammolardan bi sanaladi. Bu illatnir og'ir oqibatlar haqiqancha ko'p gapirsa yozsak ham o'rinli de o'ylayman.

Boisi, bugungi kunda

nafaqat yigitlarimiz, balki ayrim qizlarimiz ham chekishayotgani achinarli holdir. Shu maqsadda, tamakining zarari haqida bilganlarimni bayon qilmoqchiman:

Bir dona sigaret insonning 6 daqiqa umriga zomin bo'ladi. Dunyo bo'yicha har 6-8 soniyada tamaki chekish asoratlaridan bir kishi

hayotdan ko'z yumadi.

Ko'pgina kishilar tamaki chekishni yoqimli, beozor odat deb hisoblaydilar va voyaga yetmasdanoq cheka boshlaydilar. Ruhshunoslarning fikricha, odatda o'smirlar tamaki chekishni hayot tarziga xos bo'lgan holatlarda: tengdoshlaridan orqada qolmaslik, qandayligiga qiziqish, uydagilardan o'rnak olish, kimningdir majburlashi tufayli, o'zining mustaqil ekanligini isbotlash yoki kimgadir jahll qilish va shunga o'xshash sabablar tufayli boshlaydilar. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, agar 15 yoshdan cheka boshlansa, inson umri 10 yilga, 25 yoshdan cheka boshlansa, 5 yilga qisqarar ekan. Tamaki tutunidan nafas olish kattalar bilan bir qatorda bolalar uchun ham o'ta zararlidir. Shu o'rinda farzandlari davrasida bemalol chekib o'tiradigan ayrim amakilarimizga murojaat qilmoqchi edim: o'z sog'lig'ingizni o'ylamasangiz, hech bo'lmaganda, farzandlaringiz salomatligi uchun ham chekmang!

Pokiza ABDURAHMONOVA,  
yosh muxbir



UYQUDAGILARNI O'YLAB...




Shvetsariya tunda mashina haydash taqiq-langan jahondagi yagona mamlakat hisoblanadi. U yerda yozda soat 22 dan 04 gacha, qishda esa 21 dan 05 gacha tungi vaqt hisoblanadi.

XATOSINI TOPING

Olmoniyadagi nashriyotlardan biri sahifalari xatolarga boy bo'lgan o'quv kitobini bosmadan chiqardi.

Bundan asosiy maqsad, o'quvchi bilimni tekshirishdir. O'quvchi kitobdagi xatolarni qizil qalam bilan belgilaydi, kimning kitobi ko'proq «bo'yalgan» bo'lsa, o'sha o'quvchining bilimi durust ekanligi bilinadi.

U.HAKIMOVA,  
Toshkent Bank kolleji  
o'qituvchisi



Aziz bolajonlar, yodingizda bo'lsa, sevimli nashringiz «Tong yulduzi»ning ko'plab taniqli adiblar, shoir va jurnalistlar uchun chin ma'noda ijod beshigi, mahorat maktabi vazifasini o'tagani haqida faxr bilan yozgandik. Buni qarangki, barchamiz sevib mutolaa qiladigan «Shaytanat», «Murdalar gapirmaydilar», «Talvasa», «O'lim uchburchagi», «Odamiylik mulki» kabi ko'plab kitoblar muallifi O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malikning qalami ham aynan shu gazeta tahririyatida charxlangan ekan.

Yaqinda ardoqli yozuvchimiz bilan hamsuhbat bo'lib, quyidagi xotiralarini qog'ozga tushirdik:

Kitobni eng qadrli do'st, deb ta'riflashadi. Bolalar gazetasini ham shunday sharaflasak-da, joiz. «Tong yulduzi» o'zining sakson yillik tarixida millionlab bolalarning dono hamsuhbati bo'lib keladi. Aminmanki, taniqli qalam ahli ham o'zining yangi asarini shu gazeta sahifasida ko'rishidan zavqlangan.

Bu «kichkina» gazeta tanqid qilgan biron-bir kamchilikka eng «katta» idoralar ham e'tiborlarini qaratgan. Bolalar qadrdon do'stlari bilan turli o'yinlarni o'ynashni yoqtiradilar. Gazeta bu vazifani ham a'lo darajada bajaradi.

Men gazetaga 1966-yilning fevral oyida ishga kelgandim. Unga qadar qurilishda va maktabda xizmat qilgan bo'lsam-da, gazeta tahririyatiga jamoatchi fotomuxbir sifatida kelib turardim. Bolalar uchun hikoyalar ham yozardim. Meni xatlar bo'limiga qabul qilishdi. Adabiyotning fantastika janriga qiziqqanim uchun fan-texnikaga oid yangiliklar bilan tanishishga intildim. Sportga bo'lgan qiziqishim sababli, garchi xatlar bo'limida xizmat

qilsam-da, sport mavzusida ko'p yozardim. Oqibatda, bir necha oydan so'ng kaminani shu bo'limga ishga olishdi...

2006-yilda Moskva matbuotida «Charm to'p» klubining 40 yilligi nishonlandi. Men bundan ranjdim. Chunki yosh futbolchilarning eng qiziqarli o'yini bo'lgan bu musobaqa ijodkori va tashabbuskori Moskva emasdi. Bu harakat 1966-yilda emas, ancha ilgari Toshkentda boshlangan va uning tashabbuskori bolalarning sevimli gazetasi edi. Ma'lumki, bolalar o'rtasida «ko'chama-ko'cha» yoki «qishloqma-qishloq» futbol musobaqalari avvaldan uyushtirilardi. Faqat bunday musobaqalar norasmiy tarzda, betartib o'tkazilardi. Gazeta shu masalaga e'tibor qaratib, 1964-yili Toshkentda ko'cha jamoalarining musobaqasini o'tkazdi. Bu tashabbusdan ibrat olgan olmaotaliklar ham keyingi yili shunday musobaqa o'tkazdilar. Oradan yil o'tib, Toshkent va Olmaotadagi g'olib jamoalar o'zaro kuch sinashdilar. Bu tadbirdan xabar topgan moskvaliklar endi shunday musobaqani Butunitiftoq miqyosda





Hoshimjonning sehrli qalpoqchasiga juda havasim keladi-da! Agar uni kiyib olsam, 20-30 yil avvalgi vaqtga qaytib, ustozlarimning bolaliklarini bir tomosha qilardim. Ayniqsa, maktabimiz rahbarining yozgi ta'tilni qanday o'tkazganliklarini bir ko'rardim. Chunki ta'tilga chiqishimizdan avval, bizga ta'tilni foydali o'tkazinglar-a, albatta 4-5 ta yangi kitob o'qib kelinglar, deb rosa tayinladilar. O'zlari o'quvchilik yillarida ta'tilda ham faqat kitob o'qiganmikanlar?!

Xullas, kecha dadam olib bergan yangi futbol to'pimni Hoshimjonga berib turaman-da, evaziga qalpoqchasini

## DIREKTORLARNING YOZGI TA'TILI

so'rayman. Qani, kettik!

Vo ajabo, meni ko'ryapsizlarmi? Yo'g'-a? Men esa sizlarni ko'ryapman. Qalpoqcha yordamida o'tmishga qaytdim. Ana, istagimdagi voqealarni tomosha qilishni boshladim...

Toshkent viloyatining Tovoqsoy qo'rg'onida joylashgan 12-maktabimiz rahbari Muqaddas opa bolaliklarida anchagina sho'x bo'lgan ekanlar. Har yili oromgohga borib, mazza qilib dam olganlarini aytmayisizmi?! Ana, oromgohdagi «Mohir qo'llar» to'garagida po'kakdan kema yasab o'tiribdilar. Oromgohda bir kuni kitobxonlik, ertasiga sport kunlari o'tkazilganida, eng faol o'quvchi bizning ustoz bo'lgan ekanlar. Ta'tilda tuman markaziy kutubxonasiga a'zo bo'lib, rosa kitob o'qiganlari ham rost ekan. Hatto u kitoblarni oromgohga ham olib ketganlarida, kitobdan foydalanish muddati tugaganligi uchun qizim kutubxonachidan gap eshitmasin, deya onalari ovora bo'lganlarini ham bilib oldim.

Shayxontohur tumanidagi 132-maktabimiz rahbari Alijon aka Musametovning ham bolaliklarini ko'rib ber, deysizmi? Marhamat! Ha, o'g'il bolalar yozda mazza qilib cho'milishadi-da! Alijon aka ham bolaliklarida anhorlarda cho'milib, o'rtoqlari bilan gulxan yoqib, cho'g'iga kartoshka ko'mib, dam olishni juda o'rniga qo'ygan ekanlar. Ana, shahar tashqarisidagi «Sputnik» nomli oromgohda miriqib dam olyaptilar. Shuningdek, bolalikda besh tosh, jami, lafta, o'rta tushar kabi o'yinlarni o'ynashni yaxshi ko'rgan ekanlar. Siz ham bu o'yinlarni bilasizmi? Yozda albatta ularni o'ynab turing.

Lekin kitob o'qishni ham unutmang. Shunda ustozlarimiz kabi bilimli, komil insonlar bo'lib ulg'ayasiz.

Sayyora JO'RAYEVA

o'tkazish maqsadida «Charm to'p» klubini tashkil etdilar. Shunday qilib, 1966-yili Toshkentda O'zbekiston birinchiligi musobaqalari o'tkazilishi belgilandi. Shu yilning 26-aprelida ro'y bergan kuchli zilzila bu musobaqaning o'tkazilishiga xalal berdi. Shunga qaramay, ulkan qurilishlar maydoniga aylangan poytaxtda musobaqa o'tkazildi. Turli viloyatlardan kelgan ikki yuzga yaqin futbolchilarga barcha sharoitlar yaratib berildi.

Musobaqani respublika miqyosida o'tkazish oson emasdi. To'g'ri, bolalar sport maktablari o'rtasida shunga o'xshash birinchiliklar o'tkazdilar. Lekin «Charm to'p»ning talabi, qoidasi va maqsadi boshqacharoq bo'lgani bois, bu sohada hali tajriba yo'q edi. Talabga ko'ra, futbol guruhida bir ko'cha yoki qishloq bolalari o'ynashlari shart edi. Futbol maktabida ta'lim oluvchilar bu o'yinlarga qo'yilmasdi. Lekin musobaqada albatta g'olib bo'lishini istagan ayrim «ustoz»lar yoshi katta bolalarni yoki futbol maktabida

yaxshi ta'lim olgan sportchilarni guruhga jalb qilishardi. Ya'ni, «g'irrom» o'yin boshlanardi. Musobaqa tashkilotchilarini aynan shu masala qiynardi. Bu borada gazeta ba'zan o'z tekshiruvlarini o'tkazar, oqibatda, «g'irrom» jamoalar o'yindan chetlatilardi.

Musobaqa gazeta sovrini uchun o'tkazilgani bois ham tahririyat chetdan kuzatuvchi bo'lib turmagan. Barcha tadbirlarda faol ishtirok etgan. Lekin uning ko'plab e'tirozli fikrlariga musobaqa tashkilotchilari ahamiyat bermadilar. Oqibatda, jamoa tarkibi bir mahalladan emas, butun shahardan to'plangandi. Ta'bir joiz bo'lsa, ko'cha jamoasi emas, shahar terma jamoasi edi. Keyinchalik «Paxtakor» jamoasida o'ynagan o'n uch yoshli Vasilis Xadzipanagis, Vladimir Fyodorovlar ham shu jamoada shakllangan edilar.

O'sha yillari bolalar uchun yana bir qiziqarli o'yin kashf qilindi. «Zarnitsa» (Yashin shu'lasi) deb nomlangan harbiylashtirilgan o'yin ham aslida yangi emasdi. Bolalar cho'pdan ot, qilich,

## MEN ME'YORNING OSHIQ'I

Donodan so'radilar:

- Yoshlikda ham, keksalikda ham quvonchga -quvonch qo'shadigan nima?
- Me'yor! - deya javob qildi dono.
- Nima uchun?
- Chunki me'yor salomatlikning onasi hisoblanadi.

Xuddi shunday, aziz bolalar, har narsada me'yor bo'lsa, inson sog'lom va xotirjam yashaydi, bil'aks, ko'pchilik buyuk insonlar me'yorga rioya qilishgan va shu tufayli ham ularning ijodlari barakali kechgan.

Hadislarda ham: «Me'yorida yenglar, ichinglar, ammo isrof qilmanglar!» deyilgan. Me'yorni bilmaslik, unga rioya qilmaslik oqibatida inson o'ziga-o'zi ko'plab ko'ngilsizliklarni sotib oladi.

Rivoyat:

Qayum degan yigit pala-partish hayot kechirar, o'rnidan kech turib, qo'liga ilinganni ochiqib yeb, na o'ziga, na sog'lig'iga e'tibor berardi. Bir kuni bozordan gilos olib yuvmasdan yedi va o'sha kuni qorni og'rib, yotib qoldi. Ikki kunda darmoni qurib, holdan ketdi. Agar qo'shnisi Sodiq tabib holidan xabar olmaganda, hayotdan nasibasi ham uzilishi mumkin edi. Tabib uni bir hafta davoladi, yedirdi, ichirdi va tartib va me'yorga amal qilish haqida maslahat ham berdi. Qayum sog'aygach, erta turadigan, ovqatlanishda, ishda tartib-qoidalarga, hatto suhbatlarda ham me'yorga amal qiladigan bo'ldi va oradan yillar o'tib, u mahalladagi eng obro'li kishiga aylandi.

## Ulug' insonlar me'yor haqida shunday deyishgan:

*Hech kim me'yoridan ortiq yeb-ichmastigi kerak.*

PIFAGOR

*Agar me'yoridan chiqib ketilsa, to'g'likning ham, ochlikning ham, boshqa narsalarning ham xosiyati bo'lmaydi.*

GIPPOKRAT

*Mashq va me'yor hatto keksalikda ham ma'lum daraja avvalgi quvvatni saqlab qolish mumkin.*

SISERON

miltiq yasab, o'zlaricha «urush-urush» o'ynardilar. Aynan shu o'yin tartibga keltirilib, harbiylar ishtirokida o'tkaziladigan bo'ldi.

1967-yilda tahririyatga Farg'ona viloyatidan qo'ng'iroq qilishib, Beshariqdagi 1-maktabda «Zarnitsa» o'yini tashkil etilgani ma'lum qilindi. Men xizmat safariga otladim. Maktab direktori Toshpo'latovanning tashabbusi bilan bolalarga maxsus harbiy kiyim ham tiktilgan edi. Bunday o'yin hali poytaxtda ham tashkil etilmagandi. Bolalarning saf tayyorgarligini tekshirish uchun ko'chaga olib chiqdik. Oradan ko'p o'tmay, Beshariqda shov-shuv boshlandi. Avval direktorni, keyin meni hokimiyatga chaqirtirdilar: «Bolalarga nima uchun harbiy kiyim kiydirdingiz? Buning qanaqangi siyosiy xato ekanini bilasizlarmi?!» deganday po'pisalar bo'ldi. Shunda Butunittifoq o'yin to'g'risidagi Nizom e'lon qilingan gazetani rahbarlarga ko'rsatdim.

Beshariqliklar «Zarnitsa» o'yinini boshlab berganlari bilan anchagacha faxrlanib yurishdi.

Yuqorida ta'kidlaganimdek, gazeta faqat bo'lib o'tgan voqealarni yorituvchi emas, tashkilotchisi ham edi. Har yili gazeta sovrini uchun Toshkentda yugurish estafetasi o'tkazilardi. Musobaqada deyarli barcha maktablarning yosh sportchilari ishtirok etishardi. Ishtirokchilar soni ba'zan mingdan oshar edi. Poytaxtning asosiy ko'chalarida bir necha soat davomida avtomobil harakati to'xtatilardi. Buxoro sportchilari stol tennisi bo'yicha musobaqa o'tkazish tashabbuskori bo'lgandilar. Boysunda ham to'rtkurash bo'yicha musobaqalar o'tkazilgandi. Gazeta «mini basketbol» Nizomini ham ishlab chiqqandi.

Shaxmatchilarning sirtqi musobaqasi, «Svetofor», «Quvnoq startlar» kabi o'yinlarning tashkilotchisi ham aynan shu nashr edi.

«TONG YULDUZI» hozirgi kunda ham yosh avlodning bilimli, zukko bo'lib kamol topishi, chiniqishi, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishi uchun ko'plab tadbirlar o'tkazadi. Shu bois ham u bolalarning chin do'stiga aylangan.



2009-YIL - QISHLOQ TARAQQIYOTI  
VA FAROVONLIGI YILI

«Qishlog'im - qalb ardog'im» tanloviga

«Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» munosabati bilan tashkil etilgan «Qishlog'im - qalb ardog'im» Respublika tanloviga kelayotgan maktublar soni ko'paygandan-ko'payib bormoqda.

Tanlovni o'tkazishdan maqsad, Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda istiqloq yillarida mamlakatimizning chekka hududlari, qishloq joylarining tarixi, u yerdagi istiqomat qiluvchi aholining turmush darajasidagi o'zgarishlarini, keng miqyosda olib borilayotgan obodonlashtirish, bunyodkorlik ishlarini, milliy bayramlar, sport o'yinlari, urf-odat va milliy qadriyatlarimiz haqida bolalar nigohida qaydalanishidan iboratdir.

Quyida o'zingizga ushbu tanlovga kelgan insholar, she'rlar, chizilgan rasmlardan havola etamiz.

## VATAN

Sen boldirsan, men-chi, ari,  
Talpinaman senga sari.  
Mehringga men doim tashna,  
Sen-la bo'lsam, qalbim yashnar.

Vatan jonim, bol jahonim,  
Aziz yurtim, onajonim.  
Ta'rifingga ta'rif boylab,  
Oldim seni dilga joylab.

Ko'rkam diyor, hur diyorsan,  
Pok dillarda zo'r alyorsan.  
Dunyoda eng ko'rkam makon -  
Vatanimsam, O'zbekiston!

Iroda JAFAROVA,  
Jizzax shahridagi  
1-maktab o'quvchisi



Gullola Asadova Buxoro viloyati, Vobkent tumanidagi 1-maktab o'quvchisi. U bo'sh vaqtlarida rasm chizishni yaxshi ko'radi. Tahririyatimizga chizib yuborgan rasmlarini «Mening qishlog'im» deb nomlabdi.



## OQSOQOLNING NABIRASIMAN



Oqtosh qishlog'imiz havosi toza, odamlari bilimli, keksalari duogo'y. Qishloq oqsoqoli mening bobojonim. Ular sevimli bobo, hurmatli ustoz, jonkuyar oqsoqol. Bobomdan faqat yaxshiliklarni o'rganamiz.

Bayram kunlari qishloqdoshlarim bilan birgalikda sport o'yinlari, o'tin yorish, o'choq qazish musobaqalarini o'tkazamiz. Hunarli qizlar, kelinchaklar ham o'zaro bellashadilar. Keyinchalik uyalib qolmaslik uchun biz hozirdanoq tikish, to'qishni o'rganishga harakat qilamiz.

To'ylarimiz ham xushnudlik bilan hamjihatlikda o'tadi. Kam ta'minlangan oilalarga ko'maklashadilar. Yaxshi insonlar tarbiyasini olayotgan biz yoshlar ham bir-birimiz bilan inoq, do'stimiz. Men o'z qishlog'im, qishloqdoshlarim bilan faxrlanam. Uning taraqqiy etishi, farovon bo'lishiga o'z hissamni qo'shaman. Ayniqsa, men oqsoqolning nabirasi degan nomga munosib bo'lishga intilaman.

Gulasal XUSHVAQTOVA,  
Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumanidagi 18-maktab o'quvchisi

B dan  
B oshlangan  
ayon

Qishlog'imizda «Qishlog'im - qalb ardog'im» tanlovini o'tkazdik. Bu tanlovda men birinchi o'rinni oldim. Qishlog'im tarixi, o'tmishi va buguni haqida to'lqinlanib yozdim. Tayyorlagan buklet va albomlarim barchaga manzur bo'ldi.

Ustozlarim meni tuman bosqichida ham ishtirok etishimni aytishdi. Shu munosabat bilan hozirda Beshariq tumani tarixi bilan qiziqyapman.

Ta'til kunlaridan foydalanib, qiziqarli ma'lumotlar to'playapman.

Gazetada berilgan tanlovga esa «B» harfi bilan boshlanadigan bayon yo'llayapman.

Boy bog'bonga bo'yin berib borsa

Bizning Beshariqda bir bog' bor. Bolalar bayramlarda boqqa boradilar.

Bog'imizdagi betakror bezaklarning

barchasidan bizlar bahramand bo'lamiz. Bog'imizda

«Bolalar burchagi» bo'lib, bunda baliqlar bor.

Boqqa buvim bilan boramiz. Buvijonim bila-

g'on, ba'zida bizlar bilan bilim bobida bellashadilar. Buvim bilimni boylik bilib, bilganlarini barini bizlarga beradilar.

Bir boy bo'lib, bolasi betob bo'libdi.

Bolaga barra bodring, behi, bodom

berishni buyurishibdi.

bo'lmaydi. Boy bobo bugundan boshlab bemor bolasi Bahromjonga bag'ishlab bir bog' barpo bo'lishiga buyruq beribdi. Bahromjonga bag'ishlangan bog' bahorda baxmalga burkanib, borliqni bezabdi. Bahromjon bolalar bilan birgalikda boqqa boribdi, bog'dagi behi, bodomlardan bahramand bo'libdi.

Bahromjonning bog'ini barakali bo'lishi barchaning birdek bel bog'laganidir. Baraka, birdamlikdandir.

Bolajonlar, bekorchidan barcha bezor. Beshariqdagi bog'imizda bo'ladigan «Bilimdonlar bellashuvi»da bo'lib, bilimlar bulog'idan bahramand bo'linglar. Barchangiz birinchi bo'lishga bel bog'lang. Bilimdon bo'lsak, barkamol, baquvat va baxtli bo'lamiz.

Rushana  
TURSUNXO'JAYEVA,  
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 47- maktab o'quvchisi

KO'RMAYLIK  
ZAVOL

Istiqlol quyoshi nur sochar bu kun,  
Qishlog'im chiroyin ochar kundan-kun.  
Bir boqing, kam emas shahardan sira,  
Iftixor etmayin uning-la nechun?!

Sharoitlar cheksiz, imkonlar bisyor  
Qishloq yoshlarimiz, shodmiz, quvnoqmiz.  
Sog'lommiz, zukkomiz, hech kimdan kammam,  
Bugun yurtimizga o'zimiz bekmiz.

Bilimli, ilmli, hunarli bo'lsak,  
Biz yoshlarga dunyo boqar bo'lib lol.  
Bobo-yu momolar qo'li duoda:  
- Yurtimizda mangu qolsin Istiqlol.

Yuksalib borayapmiz, ko'rmaylik zavol,  
Bizlarga yor bo'lsin, doimo iqbol.  
Mehnat-la yurtimiz obod aylaylik,  
Qishloq yoshlariga kulsin Istiqbol!  
Sirojiddin IBRAGIMOV,  
Sherobod tumanidagi 32-maktab o'quvchisi



## QALBLAR G'URURGA TO'LAR

Bag'ringda kamol topdim,  
Sensan mening qarog'im.  
Har qariching muqaddas,  
Qishlog'im - qalb ardog'im.

Bog'laringda sayraydi,  
Xushovoz bulbullaring.  
Bulog'ingda zilol suv,  
Zavq ulashar gullaring.

Lazzatli mevalaring  
Dasturxonga ko'rk bo'lar.  
Bugun husningga boqib,  
Qalblar g'ururga to'lar.


Tarixingni o'rgansam,  
Go'yoki aqlim shoshar.  
Ta'rifing kuylay desam,  
Ilhom bulog'im toshar.



Muxlisa JAVQONOVA,  
Samarqand viloyati, Payariq tumanidagi  
56-maktab o'quvchisi



# QUVNOQ TA'TIL



## MAQTANMOQCHI EDI...

Ta'tilda oyim ukam ikkimizni Buxoroda yashaydigan buvimlarnikiga mehmonga olib bordilar. O'zingizdan qolar gap yo'q, mehmonga chiroyli kiyimlar kiyib boriladi. Buvijonim bizni rosa sog'ingan ekanlar, ba-

g'irlariga bosib erkaldilar, to'kin dasturxon yozib, mehmon qildilar. Qornimiz to'ygach, boqqa o'ynagani chiqdik.

– O'g'lim, kiyimlaringni almashtirib ol, dedilar oyim ukamga.  
– Yo'q, yangi kiyim-

larimni bolalarga maqtanib kelay, – o'jarlik qildi u.

Suv to'lib oqayotgan ariq bo'yida o'ynab o'tirgandik.

– Hozir mana shu suvga o'zimni otaman, – deya hazil qildi ukam va qirg'oqdagi daraxt shoxiga osilib, bir oyog'ini suvga tiqib o'tirdi. Shu payt «sholop» etgan ovoz eshitildi. O'girilib qarasam, ukam yangi kiyimlari shalabbo bo'lib, ariqdan chiqib kelyapti.

**Dilnavoz  
ABDUVAHOBOVA,  
yosh muxbir**

## XANDALAP



– Ahmad, bir sutkada necha soat bor? – so'radi o'qituvchi.

– 25 soat.  
– 24 soat emasmi?  
– Axir o'zingiz: «Kecha kun ropparosa 1 soatga uzaydi»,

dedingiz-ku...

– Teshavoy, nega yozgan diktantingda bo'sh joylar tashlab ketgansan?

– Reklama uchun...

– Nima uchun qulog'imiz ikkita-yu, og'zimiz bitta?

– Ko'proq tinglab, kamroq gapirish uchun.

**Munisa NAZAROVA,  
Buxoro viloyati, Kogon tumanidagi  
10-umumta'lim maktabning  
7-«B» sinf o'quvchisi**



Surat bizdan,  
izoh Sizdan.

## QIZIQARLI MASALALAR

Hech qanday matematik amallarni bajarmay turib, 666 sonini 1,5 barobar ko'paytirish mumkinmi?

To'rtburchak shaklidagi xonaning har burchagida bittadan mushuk, har bir mushukning qarshisida bittadan mushuk o'tiribdi. Xonada hammasi bo'lib nechta mushuk bor?

**Umida HAKIMOVA,  
Toshkent Bank kolleji o'qituvchisi**

## ZAP ISH QILIBMAN...

«Tong yulduzi»ga obuna bo'lib, zap ish qilgan ekanman-da! Mana, ta'til kunlarimda uni miriqib o'qiyapman. Ayniqsa, «Quvnoq ta'til» sahifasini o'qiy boshlasam, uka va singillarim ham yonimga kelib olishadi. Bu sahifadagi qiziqarli masalalar, topishmoqlar, boshqotirmalar ustida «bosh qotirib», menda ham bir fikr tug'ildi.

Ta'til kunlarimda fransuz tilini mustaqil ravishda o'rganyapman. Aminmanki, men kabi xorijiy tillarni o'rganayotgan tengdoshlarim talaygina. Ularning bu boradagi bilimlarini sinab ko'rish maqsadida, skanvord tuzib yuboryapman.

**Mahbuba QOYIROVA,  
Buxoro viloyati, Shofirkon tumani**

## TOPISHMOQLAR

Olov purkar og'zidan,  
Uqqin gapning mag'zidan.  
Bizga kerakdir doim,  
Bu nima, ayt, Guloyim?

Bo'lar sariq yo qizil,  
Yer tagida yetilar.  
Tupida yakka hosil,  
Sochi uzun, selkillar...

Bozorda sotilmaydi,  
Tarozida tortilmaydi,  
U asaldan ham shirin,  
Ammo yesa bo'lmaydi...

## TEZ AYTISHLAR

Saida saharda  
sigirini sog'ib, sutini  
sinfdoshi Salimaga  
sotdi.

Tyanshan tog'ining  
tagida to'qqiz ming  
to'qqiz yuz to'qson  
to'qqizta traktor tirilayapti.

**Mahfuza JALOLDINOVA,  
yosh muxbir**

B									
O									
N									
J									
O									
U									
R									

## FRANSUZCHA

### SKANVORD

1. Ko'k rang.
2. Apelsin.
3. Milliylik.
4. O'ynamoq.
5. Narsa; buyum.
6. Foydalanmoq.
7. Tanaffus.






## QO'SHNI BOLA

Qo'shni bola Ibrohim,  
O'zi sho'x, so'zi shirin.  
Bir g'alva boshlar doim,  
Sira bilmaydi tinim.

Kecha uni ko'chada,  
Bir holda ko'rib qoldim.  
Peshonasida g'urra,  
Qiziqib gapga soldim:

– Ha, toychoq, nima bo'ldi,  
Yo yiqilib tushdingmi?  
Qog'ozdan kema yasab,  
Yo osmonga uchdingmi?

Ibrohim der: – Akamga  
O'ynaylik, deb turvoldim.  
Quvlayotib boshimni  
Isitgichga urvoldim.



## O'G'LIMNING SAVOLLARI

Jajji o'g'lim Bunyodning  
Savollari juda ko'p.  
Qo'yib bersangiz bir zum,  
Qator qiladi to'p-to'p.

– Oyi, aying qayda, der –  
Yulduzlarning otasi?  
Qayda ekan ularning  
Mehriboni – onasi?

– Qo'shni bola Botirning  
Sochlari nega sariq?  
– Teshakaning echkisi  
Ko'p o't yesa ham oriq?

– Nega bog'cha opamiz  
Ko'p uxlatib qo'yadi?  
O'yinchoqlar o'ynatmay,  
Tek o'tkazib qo'yadi?



Zahro HASANOVA

– Ertakdagi ajdarho  
Kelsa qanday tutamiz?  
Yetti boshli ilonni  
Jangda qanday yutamiz?

O'g'lim boshin silayman,  
Uzoq umr tilayman.  
Savollariga bir-bir,  
To'g'ri javob izlayman.

Muhiddin OMON

## BIZNIKIDIR DUNYOLAR

(Faxriya)

Subhi sodiq saharlarda  
mustajobdir duolar,  
Boshimizda qanot qoqar  
tushga kirgan Humolar.  
Ko'ngil ozod, Vatan obod,  
biznikidir dunyolar,  
Yurt tinchligi, el ravnaqi –  
maqsadi a'molimiz,  
Kundan-kunga nurafshondir  
tole-yu iqbolimiz!

Istibdodning kishanlari  
uzilgani rost bugun,  
Qadrin topib, jilolanar  
har oltin meros bugun.  
O'zbek elim shavkatiga  
jahoniylik xos bugun,  
Dilda iymon chashmasidur  
no'sh etar zilolimiz,  
Ma'naviyat qubbasida  
Tug'romiz, Hilolimiz.

Qadim Turon zamini bu,  
to'tiyodur tuprog'i,  
Ulug'larning yodi bilan  
nurafshon dil chirog'i.  
Bunda tarix so'yilab turar  
har chinorning yaprog'i,  
Shul Vatan bahra olgan  
zehnimiz, kamolimiz,  
Oydan-oydin, kundan-ko'rkli  
ro'yimiz, jamolimiz.

Dard-u hasrat bizga yotdir,  
begona g'am azoblar,  
Baxtimizni ko'rolmasa,  
kuyib o'tsin kazzoblar.  
Osmonimiz tark etmasin,  
Yurt deb yongan oftoblar,  
Mangu rizqdir bizga nasib-  
luqmai halolimiz,  
Adolatdir bizga peshvo,  
bo'lmag'ay zavolimiz.

## Jabarruk yoshingiz muborak, ustoz!

Jo'ra SA'DULLAYEV,

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist. O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasining «Yilning eng faol jurnalisti» ko'rik-tanlovi sovrindori.

Jo'ra Sa'dullayev Qibray va Zangiota tumani gazetalari tahririyatlari, «Turkiston», «O'zbekiston ovozi», «Qishloq haqiqati», «Xalq so'zi» gazetalarida turli vazifalarda muharrirlik qildi. Keyinchalik «Mushtum» jurnaliga Bosh muharrirlik qildi. Ayni kunda «Toshkent haqiqati» gazetasida faoliyat yuritmoqda.

Uning «O'zbekiston yulduzlari», «Kamolot yo'llari», «Istiqlol uchun mas'ulimiz», «Nasiba», «Davr ko'zgusi» kabi kitoblari chop etilgan.

Ustoz jurnalist ayni kunlarda tavalludining 70, jurnalistik faoliyatining 50 yilgini nishonlamoqda. Ularni ko'p sonli o'quvchilarimiz nomidan muborakbod etamiz va ijodiy parvozlar tilaymiz.

## O'NGIDAN KELGAN TUSH

Jonsaid beg'ubor bolalik yillarini, otasi bilan poda haydab kezman qir-adirlarini hali-hanuz eslaydi. Bugungi Olmaliq shahri, u kabi bolalar ko'z o'ngida tiklandi. Hozirgi Amir Temur shox ko'chasi o'sha yaylovlar osha o'tib, tog' etagi – Qalmoqqirga tutashardi.

Bir kuni o'sha tomonlarda mol boqib yurganida, archaning tagida ko'zi ilinib qoldi. Hozirgina non, choy olib kelgan onasi o'g'lining boshini ohista ko'tarib, nimchasini yostiqliq qilib qo'ydi. Ibodulla aka pastda mashinaning chang-to'zon ko'tarib ishlashiga, kranlar xartumiga ilingan g'isht taxlamlarini uylarning uchinchi, to'rtinchi qavatida ishlab turgan quruvchilarga paydar-pay ko'tarib berishiga mahliyo bo'lganicha, Karomat opa quyib bergan choyni ho'plab o'tirardi. Shu payt archa soyasida uxlab yotgan o'g'illarining alahsiragan ovozini eshitib, ota-ona xavotirlanib, o'sha tomonga talpinishdi. Ona o'g'lining qoshiga uchib bordi, go'yo:

– Bolam, bolaginam,  
senga nima bo'ldi?

Jonsaid ko'zlarini katta-katta ochganicha onasining bag'riga tashlandi, lekin hovuchini ochmadi. U boshini onasining ko'ksiga qo'yib, olis-olis qorli tog' cho'qqilariga tikilganicha qotib qolgandek o'tirardi.

Ibodulla aka ham salmoqli qadam tashlab yetib keldi, o'g'lining ko'zlariga tikildi. Shundagina Jonsaid qattiq seskanib, bir otasi, bir onasiga qarab qo'ydi.

– Tush ko'rdingmi, o'g'lim? – so'radi ota.

Jonsaid bosh silkitib qo'ydi. Onasi yetaklab borib, nariroqdagi buloq suvida yuvintirib keldi.

– Yuvintiray desam, o'g'lingiz bu kaftini ochmadi, – dedi ona.

Ota-ona bir piyola choy quyib, Jonsaidga ichirishdi. Biroz o'ziga kelgan o'g'illariga tikilganlaricha, ular ham jim o'tirib qolishdi. Oxiri Jonsaid tilga kirdi:

– Bir tush ko'rdim, ota, – dedi yoshiga xos bo'lmagan jiddiqlik bilan. – Hov anavi adirlarda mol boqayotgan ekanmiz. Ulkan bir qush, hali unaqasini ko'rmaganman, uchib keldi. Tepamizda aylanib ucha boshladi. Tumshug'ida bir nima yalt-yult etardi. Qush yuqori ko'tarilib, Qalmoqqir tepaliklariga qarab uchdi. Bir to'p bolalar ortidan yugurdik. Horib charchasam, toshlar oyoqlarimni yorsa ham, – Jonsaid shunday deya, jonsarak bo'lib, oyoqlarini paypaslab qo'ydi, yana xotirjam gapini davom ettirdi, – tovonlarim qonasa ham, qushning ortidan qolmay yuguraverdim.



Tunov kuni mollarimizni o'tlatgan Qalmoqqir tepaliklari ustida qush aylana yasab, ohista ucha boshladi. To'xtab, ortimga qaragam, bolalar ancha pastda qolib ketishibdi. Ba'zi birlari o't-o'lanlar ustida yotishar, ba'zilari cho'nqayib o'tirib olishgandi. Men toshdan-toshga sakrab, sirg'anib-yiqilib, yana turib, yuqorilab boraverdim. Nihoyat, sayhonlikdagi bodom daraxti tagiga

yetib bordim. Qush men tomonga pastlab kela boshladi. Shunda aniq ko'rdim, tumshug'ida bir yulduz yarqirab turardi. Beixtiyor kaftlarimni ochdim. Qush boshimga qo'ngudek uchib o'tayotib, yulduzni kaftimga tashlab yubordi. Bir sakradim-u, ilib oldim, ota! Mana u...

Shunday deb, Jonsaid kaftlarini ochdi. Unda hech nima yo'q edi...

– I-e, yulduz qani?! – Jonsaid yana hayratga tushib, jonsarak bo'lib qoldi. – Hozirgina kaftimda turuvdi. Mana,

kaftimni qattiq siqqanimdan uchlari etimga botib ketgan, jonim og'riyotgan edi.

– Yulduzing o'zing bilan bo'ladi, o'g'lim, – dedi Ibodulla aka salmoqlanib. – Uni albatta topasan.

Jonsaid botayotgan quyosh nurlari ostida yarqirab turgan tog'larga tikilganicha xayol surib qoldi.

\*\*\*

Jonsaidning tushi o'ngidan keldi. Ibodulla aka o'sha buloq boshida Jonsaidni bag'riga bosib, aytgan gaplari bugun amalga oshdi. Mustaqillik bu yurtning asl o'g'lonlari uchun baxt yo'lini ochdi. Bugun «Qalmoqqir koni» ekskavator mashinisti Jonsaid Turdiyevning ko'ksini O'zbekiston Qahramoni Oltin yulduzi bezab turibdi.

Ona yurt fidoyi farzandlarini shunday ulug'laydi.

Jo'ra SA'DULLAYEV





Sirga to'lib yotar cheksiz dalalar,  
O'yga cho'mib yotar ko'hna qal'alar.  
Daryo xotirasi ultonlarda sir,  
Hirqa kiygan darvesh sultonlarda sir.  
Ayoqqal'a, Tuproqqal'alar bugun,  
Asror chilvirida chigal bir tugun...

Iqbol MIRZO

Uzoq moziydan ogoh qadimiy qal'alar. Ayoqqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Qirqqizqal'a, Guldursinqal'a... Ularning savlatidan hamon qalb junbushga keladi. Tuproqqal'ani ko'rib esa ulug' ajdodlarimizning salohiyatiga, uddaburonligiga, mahorati-yu san'atiga, kuch-qudratiga tahsinlar o'qiyasiz.

Men ko'hna Misr ehromlarini ko'rganman.

Quyosh botayotganda, ko'hna devorlar ustida o'tirib, xayolga cho'masiz. O'shanda sizning fikr-o'yingizni uzoq moziy, ko'hna zamin silsilalari o'z qa'riga tortganday bo'ladi.

Osmon to'la yulduzlarga boqib, tun qo'ynida qal'alarni ohista aylansangiz, uzoq tarix silsilasining olamshumul voqealari — qirg'in-barot urushlar, himoyachi-jangchilar, tengsiz olishuvlar, olov ichida qolgan saroylar, dahshatga tushgan odamlar ko'z oldingizda gavdalanganday bo'ladi.

Rashid og'aning so'zlarida jon bor edi. Biz yoshullining aytganidek ish tutsak, bir necha oy bu joylarda bo'lsak ham, qal'alarning yarmisini ham ko'ra olmas-



Ularning ne-ne asrlar silsilasiga guvoh bo'lgan bahaybat tosh taxlamlari osha bepoyon kengliklariga boqqanman. Inson zakovatiga, kuch-g'ayratiga, mahoratiga qoyil qolib, ehromlar atrofini bir necha bor aylanganman. Bu yodgorliklarning ham atrofi yaydoq cho'l...

Bir paytlar, uzoq moziyda bu qal'alar o'xshashi yo'q go'zal saroylar, istehkomlar bo'lgan, atroflari ham nihoyatda bog'-rog'larga burkangan, yam-yashil vodiy bo'lgan. Jayhun ham shu qal'alar atrofidan jo'sh urib oqqan, Hazar dengiziga borib quyilgan.

Biz taniqli tarixchi olim va noshir Ibodulla Shoymardonov bilan Ellikqal'aga qadimiy qal'alar bilan yaqindan tanishish maqsadida ezgu-niyat bilan bordik. Ko'nglimizda barcha qal'alarni ko'rish, ziyorat qilish edi. Zardushtlar quyoshdan olov yoqqan, mashhur «Avesto» satrlari bitilgan muqaddas joylarni birma-bir ko'rish edi. Biz birgina Ayoqqal'a va uning yonidagi kichkina qal'aga qadam ranjida qilib, o'ylaganimiz bir xayol ekanligiga ishonch hosil qildik.

— Ayoqqal'ani kamida bir necha kechakunduz ko'rish kerak, — dedi hamrohimiz shu elning e'zozli yoshullisi Rashid og'a Ollaberganov.

— Nega? — deymiz qiziqib.

— Erta tongda, qal'aning baland devorlariga chiqib, quyoshni qarshi olasiz. Bunda bir o'zgacha tuyg'uni his qilasiz.

— Keyin, keyin-chi? — deymiz yana hayajon bilan.

— Peshin mahali kelib, paxsa devorlar osha yurib, yana bir aylanasiz va boshqacha bir muhitni dildan o'tkazasiz.

ligimizga ishonch hosil qildik.

Men mashhur rus qadimshunos S.P.Tolstovning bu ko'hna zaminni yayovkezi b,

qazishmalar olib borib, yozgan esdaliklarini maroq bilan o'qiganman. Keyinchalik bu yerlarda qazishma ishlarida qatnashgan tarixchi-elshunos olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan Fan arbobi, professor Iso Jabborovning noyob topilmalar haqidagi hikoyalarini jon-quloq bo'lib tinglaganman.

Bu zaminning har bir qarich yeri o'zi bir afsona, qiyosi yo'q yodgorlik. Bir zamonlar dunyo tamaddunining beshiklaridan biri bo'lgan bu joylarning tarixi juda uzoq va dunyoga mashhur. Eramizdan oldingi I - IV asrlarda Xorazm davlatining poytaxti ham xuddi shu hududda joylashgan. Qadimshunos olimlarning ta'kidlashicha, bu hududda bir zamonlar 1200 dan ortiq qal'a va qal'achalar bo'lgan. Iskandarning bosqinchiliklari, arablarning iste'losi, mo'g'illarning ayovsiz yovuzliklari... Ular bu yerlarni bir necha bor vayronaga aylantirishgan. Lekin muqaddas zamin taraqqiyotini, inson irodasini buka olmagan. Hozirgi kungacha bizgacha bu qal'alardan atigi 26 tasining qoldiqlari yetib



kelgan, xolos.

Ellikqal'a tumanining go'zal va obod markazi Bo'ston ana shu qadimiy qal'alarning ramziy ma'nosini o'zida mujassam etgan zamonaviy shahar. Tumanning tinib-tinchimas, san'atni, ijodiyotni jon-dildan sevuvchi jonkuyar va fidoyi hokimi Ne'matulla Xudoyberganovning tashabbusi bilan o'tgan yili shaharning dam olish hududida «Ochiq osmon ostidagi muzey» nomi bilan ana shu mashhur qal'alarning maketlari barpo etildi. Endilikda bu o'ziga xos maskan maktab o'quvchilari, litsey va kollejar talabalari, mehmon va sayyohlar uchun Ellikqal'aning yorqin qiyofasi, qadimiyligini ko'rsatuvchi «mayoq». Hozir bu yerda tez-tez tarixchi olimlar, yozuvchi-shoirilar ishtirokida erkin mavzuda ochiq darslar o'tkazilmoqda, suhbat va uchrashuvlar tashkil etilmoqda. Birgina Tuproqqal'a tarixining o'zi bir dunyo, o'zi bir afsona. Bir paytlar dunyoga mashhur ulkan bir davlatning poytaxti bo'lgan bu joylarda salobatli devorlar, ulkan saroylarning qoldiqlari insonlarni hamon hayratga solib turibdi.

Qal'aning haybatli devorlari osha yorqin o'tmish voqealarini ko'z oldiga keltirgan sevimli shoirimiz Abdulla Oripov shunday satrlarni bitgan edi:

**So'radilar: ilk bora qachon odamzod,  
Shaharlar tiklagan tuproq-zarradan.  
Dedilar: Rim, Madrid, Afinangni qo'y,  
Dalilni izlagin Tuproqqal'adan!**

Bir paytlar Xorazmshohlar qarorgohi bo'lgan betakror go'zal qal'aning ulkan devorlari, saroylari urushlar, bosqinchiliklar oqibatida necha-necha asrlar o'tishi bilan yemirilgan, vayronaga aylangan. Qal'ada 26 saroy bo'lgan. 25 metr keladigan uchta minora bo'lib, ular orqali qal'a tashqi dushmandan mudofaa qilingan.

Ulkan devorlar ustida turib, bir-birlari bilan tutashib ketgan xonalar qoldiqlariga razm solamiz. Bu ulkan xonalar o'ziga xos saroylar bo'lib, har birining o'z nomi bo'lgan. «Hukmdor xonasi»da mehrob joylashgan bo'lib, 23 hukmdorning suratlarini yoritib turgan olov tun-u kun o'chmagan.

«G'alabalar xonasi»ning devorlarida esa taxtga o'tirgan hukmdor va uning boshi uzra uchib yurgan g'alaba farishtasining surati aks ettirilgan.

Qarorgohdagi «Qora tanli jangchilar», «Bug'ular», «Raqsga tushayotgan niqoblar» zallari ham o'ziga xos, mazmunga monand bo'lgan. Arxeologlar qazishma paytida



qal'adagi zallarning birida boshiga toj kiyib, qo'lida burgut ushlab turgan podshoh haykalini topishgan. Bu yerdagi saroylardan topilgan tangalar Xorazmshohlar davlati nihoyatda qudratli bo'lganidan shohidlik beradi. Tangalarning muayyan tamg'alarga ega bo'lganligi hukmdorlarning mustaqil siyosat yuritganidan dalolatdir.

Jabbor RAZZOQOV

Davomi keyingi sonda





## MURABBIY - SOBIQ BITIRUVCHI

Mahallamizdagi bolalardan Uchtepa tumanida joylashgan 236-maktab qoshida ochilgan karate to'garagi haqida eshitib, 5 yoshli jiyanchamni u yerga yetaklab bordim. Kattagina zalda 70 dan ziyod sportsevar bolajonlar murabbiy-Eldor Jonboyev boshchiligida mashq qilishardi. Ularning epchil, chaqqon, chiroyli harakatlarini kuzatarkanman,

yilda Rossiyada bo'lib o'tgan hamdo'stlik davlatlari kubogida 2-o'rin sohibi, 2004-yil Qozog'istonda o'tkazilgan xalqaro turnirda 1-o'rin sohibi va eng yaxshi sportchi, 2006-yil kattalar o'rtasida chempion va yilning eng yaxshi sportchisi, 2009-yilgi O'zbekiston chempionatida jamoa kumite (KMT) bo'yicha 1-o'rin sohibi bo'lganman.

**- Yetti yildan buyon murabbiylik qilarkansiz, shogirdlaringiz ham ko'payib qolgandir?**

- Eng yaxshi ko'rgan savolimni berdingiz. Chunki shogirdlari, ularning yutuqlari haqida gapirish, menimcha, har bir ustoz uchun juda maroqli. Hozirgi kunda 700-800 bolaga ustozlik qilayapman. Yaxshi natijalarga erishayotgan, ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritayotgan shogirdlarim besh yuzdan ortiq. Amirxon Xolmuhammedov, Dilshod Orifjonov, Farruh Zohidov, Mirjamol Yahyoyev, Azamat Xojiyev, Abduhalil

Abduvaliyevlar kabi chempionlar safiga qo'shilgan umidli shogirdlarim bilan haqli ravishda faxrlanaman.

**- Kelgusidagi rejalaringiz.**

- Klubimiz uchun barcha talablar darajasidagi sport kompleksi ochib, yurtimiz dovrug'ini dunyoga taratadigan iqtidorli sportchilarni, chempionlarni berish...

Eldor akaga samimiy suhbat uchun minnatdorchilik bildirib uyga qaytarkanman, qalbmida yozgi ta'tilda bekor yurgan mahallamiz bolalarini ham shu klubga boshlab borish istagi tug'ildi.

Mohira ABDUSHUKUROVA,  
poytaxtdagi 116-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi



o'zimdagi ham sportning bu ajoyib turi bilan shug'ullanish istagi paydo bo'ldi. To'garak haqida batafsilroq ma'lumot olish maqsadida, Eldor akani suhbatga chorladim:

**- Nega aynan bu maktab qoshida to'garak ochdingiz?**

- Chunki o'zim shu bilim maskanining sobiq bitiruvchisiman. Maktabni tamomlash arafasida sportga bo'lgan ishtiyoqimni payqagan bilim dargohimiz rahbari bu yerga yana qaytib, sportsevar o'quvchilarga murabbiylik qilishimni taklif qilgandilar. Ustozim Biloliddin Zayniddinovning yordamlari bilan «Bilol» karate klubining filialini ochdik. O'zim 2002-yildan buyon klubda bosh murabbiyman.

**- Karatega mehr qo'yishingizga kim turtki bo'lgan va necha yildan buyon shug'ullanasiz?**

- Ota-onam shu klubga yetaklab olib kelishganiga ham 10 yildan oshibdi.

**- Shu kungacha erishgan yutuqlaringiz...**

- To'rt karra O'zbekiston chempioni, besh karra O'zbekiston kubogi, ikki karra «Osiyo» kubogi sohibi, 2002-

## SALOMATLIK SIRLARI

izlarga sog'liqni saqlashning sirlarini so'zlamochiman. Sog'liq - sehrli sezgi, sabrning sarasi. Sog'liq sokin-samo, soya-salqin sohillaridagi sarin sabo singaridir. Salomatlik sarhadlari sizdan so'ldamas. Sportning suvda suzish, sakrash singari sohalarini sevingingizni so'rayman. Sihatligingizning sirli sahifalari sizni suyuntiraversin.

Sihat-salamatligingiz sirlarini so'rasalar, sportligini so'zlang.

Madina MIRZAQOBILOVA,  
O'zDJTU qoshidagi  
Uchtepa akademik litseyi talabasi



## Qandada

Kichkintoy otasiga qarab turganча savol berdi:

- Dada, oyim qani?

- Orqangga qara.

- Dada, oyim qayerda?


- Orqangga qara!

- Dada, oyim qayerda?


Achchig'i chiqqan ota kichkintoyni shartta orqaga qaratib qo'ydi.

- Oyi, dadam qani?..

Fayzulla ABDULLAYEV



## SAN -




## GO -

Ushbu boshqo-firmaning yechish uchun doiralar ichidagi sonlarni bo'sh doirachalarga shunday joylashtiringki, raqamlar yig'indisi eniga o'ng tomondagi songa, bo'yiga pastdakisiga teng bo'lsin.

Tuzuvchi:  
Dilrabo XOLIQOVA

## KU



BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:  
Zuhra MUHSIMOVA,  
Fazliddin SHOYODGOROV  
Navbatchi:  
Feruza SOYIBJON qizi

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:

Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 700129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru

Tel: 244-27-25, 244-63-08

Tel./faks:

(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092

Adadi - 28209  
Buyurtma N: J 7805

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.